

MISR GRAMMATIKA MAKTABINING SHAKLLANISHI VA IBN HOJIBNING UNDAGI O'RNI

Oriental Universiteti

1-kurs magistranti

Abdullahayev G'olibjon Tolibjon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Misr grammatika maktabining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ushbu maktabning arab tilshunosligidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Ayniqsa, mazkur ilmiy maktab vakillaridan biri bo'lgan yirik nahv olimi Ibn Hojib (XIII asr)ning ilmiy merosi tahlil qilinadi. Uning mashhur "Kofiya" asari orqali nahv ilmining nazariy asoslari shakllangani va bu asarning boshqa grammatika maktablariga ta'siri yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Misr grammatika maktabi, Ibn Hojib, Kofiya, arab tili, nahv, tilshunoslik, ilmiy meros.

Abstract: This article explores the formation and development of the Egyptian school of grammar and its role in Arabic linguistics. Special attention is given to Ibn al-Hajib, a prominent grammarian of the 13th century, whose scholarly contributions significantly shaped the theoretical foundations of Arabic grammar. His seminal work "Kafiya" is analyzed as a cornerstone text that influenced subsequent grammatical schools and scholars.

Keywords: Egyptian grammar school, Ibn al-Hajib, Kafiya, Arabic language, grammar, linguistics, scholarly legacy.

Аннотация: В данной статье рассматривается становление и развитие Египетской грамматической школы, а также её роль в арабском языкознании. Особое внимание уделяется одному из выдающихся представителей школы — Ибн аль-Хаджибу (XIII век), чьё научное наследие оказало значительное влияние на развитие теоретических основ арабской грамматики. Анализируется его знаменитое произведение «Кафия» как важнейший источник для последующих грамматических школ.

Ключевые слова: Египетская грамматическая школа, Ибн аль-Хаджиб, Кафия, арабский язык, грамматика, языкознание, научное наследие.

Til bilimlarining taraqqiyotiga arab tilshunoslik maktabining ham hissasi katta bo'lgan. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, til haqidagi fan ikki til o'rtasidagi (adabiy til va sheva) farq yoki bir tilning ikki tarixiy bosqichdagi rivojlanishini o'rganishda paydo bo'ladi. Xuddi shunday analogik sabab o'rta asrlarda arablarga tilshunoslik bilan shug'ullanishga turtki bergan.

Arab madaniyati tarixi bilan shug‘ullanish shuni ko‘rsatadiki, arablar o‘z tilining sofligi va boyligini hayron qolarli darajada yuqori qo‘yadilar. Ularni saqlab qolish, til faktlarini to‘plash, sistemalashtirish va o‘rganish uchun arab olimlari ozmuncha ish qilmadilar. Bularning barchasi o‘zining ijtimoiy va tarixiy asosiga, ya’ni ildiziga ega.

Arab tilshunoslari klassik arab tilining fonetik tuzilishi, grammatikasini har tomonlama ishlab chiqqanlar. Arab tilshunoslida muhim bo‘lim leksikologiya edi. Arab tilshunoslardan Iso Saqafiy (vaf. 766 y.) o‘zining ko‘p sonli ishlari va shogirdlari bilan ajralib turadi. Shuningdek al-Usman Abu Ubayd, al-Mubarrad, Muhammad ibn Durayd asarlari katta ahamiyat kasb etadi. Arab filologiyasi taraqqiyotiga Ibn Sikkit, Muhammad Anbariy, Abr ibn Qutayba, Ibn Jinniy, Ismoil Javhariy, Muhammad Hiraviy va boshqalar katta hissa qo‘shdilar. Bu mualliflarning asarlarida arab tili leksikasi har tomonlama yoritib berilgan. O‘scha davrlarda klassik arab tilining ko‘p jildli lug‘ati tuzilib, yirik leksikografik ishlar qilingan.

XI asrga kelib arab Sharqida tilshunoslik juda taraqqiy etib ketdi. Biroq qadimgi Hind, Yunon, Rim va Arab Sharqi olimlari asarlarida u yoki bu tilga oid ma’lumotlarni shu guruh yoki oila tillari bilan taqqoslab o‘rganilmadi. Tillarni qiyosiy o‘rganish ishini mashhur olim Mahmud Qoshg‘ariy boshlab berdi.

Arab tilshunoslaring shakllanishi va nisbatan juda qisqa vaqt ichida rivojlanishning yuqori cho‘qqisisiga chiqishiga tarixiy shart-sharoit yordam bergen. 632 yili tarix sahnasiga chiqqan arab xalifaligining sarhadlari arablarning yurishlari natijasida nihoyatda tez kengaya bordi. Yaqin va O‘rta Sharq, Hindistonning kattagina qismi qo‘shilgan holda, Kavkazorti, Shimoliy Afrika Ispaniya va Yevropaning janubiy hududlarigacha xalifalik tarkibiga kirdi. Shunday qilib arabiyyabon madaniyatning rivojlanish jarayoniga turli xalqlar, madaniyatlar aralashib, qo‘shilib ketdi. Bu o‘lkalarga islom dini bilan birgalikda arab tili ham din, davlat, ilm va ta’lim tili sifatida kirib keldi.

Bu davrda arab dunyosida tabiiy va gumanitar fanlar gullab-yashnadi. Til, ayniqsa arab tili masalalari bilan shug‘ullanishga alohida e’tibor qaratildi. Arab tilining sofligini saqlash umum davlat miqyosidagi muhim vazifalardan biri hisoblangan.

Fath etilgan davlatlar islom dinini qabul kilishdi, arab tili esa davlat tili deb e’lon qilindi. Shunday qilib qisqa vaqt ichida klassik arab tili juda katta territoriyali davlatning, hukmon dinning tiliga aylandi. Qur’oni karimning oyatlari, hadislari juda to‘g‘ri talaffuzni talab etar edi. Ana shu munosabat bilan Arab sharqida tilshunoslik paydo bo‘ldi, taraqqiy etdi. Arab tilshunoslaring markazi Abbosiylar sulolasi davrida Basra va Kufa shaharlari hisoblanar edi. Arab tili grammatikasining birinchi muallifi esa Abu-l-Asvat Dualiydir. Arab tilshunoslari klassik arab tilining fonetik tuzilishini, grammatikasini har tomonlama to‘liq va mukammal ishlab chiqdilar. Leksikologiya esa arab tilshunoslida asosiy bo‘lim hisoblanadi.

Arab tilshunoslari sintaksis, morfologiya va fonetika masalalarida katta

yutuqlarni qo‘lga kiritganlar. Sintaksisning vazifasi gapni struktur — semantik analiz qilishdan iborat edi. Unda ikki “so‘z” yoki “so‘z” bilan “fe’l” o‘rtasidaga ega-kesim munosabati asos qilib olingan. Tilshunoslar gaplarni yiqiq va yoyiq, sodda va murakkab jumalalarga; gapning boshida qaysi so‘z turganligiga qarab ularni “ismiy”, “fe’liy” va “qolip” gaplarga ajratganlar, unga muvofiq ega va kesimning ham turlari ajratilgan. Gapning 2-darajali bo‘laklari ham ajratilib mufassal, to‘la tasniflangan (to‘ldiruvchining 5 turi, turli hildagi hollar, izohlovchilar). Kelishiklarning formal va virtual holatlari farqlangan. Gapning konstruksiyasi, ya’ni tuzilishini tushuntirish uchun “nazarda tutilgan (podrazumevaemiy chlsn predlojsniya) gap bo‘lagi” tushunchasini kiritganlar. Moslashuv, boshqaruv va bitishuv aloqalari ham tahlil doirasiga kiritilgan.

Morfolognyada esa so‘z turkumlari va ularning sintaktik jihatdan shart(lanmagan) bo‘lman so‘z yasalishi xususiyatlari o‘rganilgan. Bu sohaga so‘z turkumlari “ism”, “fe’l” va “harf” (yordamchi so‘zlar); o‘zak tarkibi, ism va uning turlari tasnifi, fe’llar, ularning forma va ma’nolarining mufassal tasnifi; ikki kelishikli, uch kelishikli ismlar, nisbiy otlarning yasalishi, grammatik jins va grammatic son shakllarining yasalishi, o‘zak tarkibidagi undosh sababli so‘z shaklining o‘zgarishi, vaqf (pauzal) formalar va boshqa holatlar o‘rnatilgan. Aynan shu yerda masdar masalasida bahs yuritilgan.

Arab olimlari fonetikada ayniqsa katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. Masalan: Xalil ibn Ahmad, Ibn Sino, Sibavayhi. Grammatik asarlarning fonetika bobida arab tovushlarining artiqulyatsiyasi, shuningdek ularning turli o‘zgarishlari bayon qilinar edi. Ibn Sino tovushlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun porrelyatsiya, ya’ni o‘zaro aloqadorlik, bir-biriga bog‘liqlik tushunchasini kiritgan. Fonemalarni undosh va unlilarga ajratishi esa Ibn Sinoning jahon tilshunosligi rivojidagi katta xizmatlaridan biri bo‘lgan. Geminatsiya hodisasi esa to‘liq progressiv yoki regressiv assimilyatsiya natijasi deb tasniflangan. Qisman va masofadan turib assimilyatsiyalash hodisasi ham bayon qilingan. Arab tilshunoslari tomonidan undosh va unlilarning o‘zaro aloqadorligi, undoshlarning almashtirilishi, hamzaning yo‘qolishi, liteteza, epiziya, bog‘lovchi (biriktiruvchi) unlining paydo bo‘lishi, tovush simvolizmlari masalalarigacha o‘rganilgan.

Arab tilshunoslarining nisbatan qisqa davr mobaynida shunday muvaffaqiyatlarga erishganliklari boshqa xalqlarda, o‘zga madaniyat vakillarida bu yutuqlarga nisbatan turli faraz, tahmin va gumonlarni keltirib chiqargan.

B i z g a yetib kelgan ma’lumotlarga asoslangan holda arab olimlari bir ovozdan Abu-l-Asvat Dualiyini “arab grammatisining asoschisi va nahv ilmining birinchi

muallimi” deb tan olishadi. Jumladan, Ibn Qutayba (Kitabu-l-maorif) va Suyutiylar: “U arab tilining qonunlarni yaratgan birinchi kishidir”, - deyishadi.¹

Arab grammatisiga oid izlanishlar bilan Abu-l-Asvadning shogirdlari Anbasa ibn al-Fixrii, Maymun al-Aqrani Nasr ibn Osim, Ya’marlar shug‘ullanishgan. Bu tilshunoslarning ham shogirdlari bo‘lib ular ham nahv ilmi bilan shugullanishgan. Masalan, Abu Amr Ala Maziny (vaf. 153/770 y.) Nasr ibn Osimning; Abu Is’hok Xadramiy (vaf 117/ 735 y.) esa Ya’yo ibn Ya’marning shogirdi bo‘lishgan Abu Amr ibn Umar Saqafiy va Yunus ibn Habib esa Maziniy va Xadramiyning shogirdi bo‘lgan.

Arab nahvi ilmining poydevorini Abu-l-Asvad Dualiy qo‘yigan bo‘lsa, uning binosini biz yukorida nomlarini zikr etgan (birinchi) tilshunoslar qurishgan. Eng achinarlisi shuki, ularning asarlari bizgacha yetib kelmagan.

1-davr. Abu-l-Asvad ad-Duali davri. Arab grammatisasi bilan shug‘ullanishga sabab bo‘lgan omillar haqida rivoyatlar, hikoyatlar qanchalar turli-tuman va xilma xil bo‘lmashin, arab grammatisasining normalarini, qonun-qoidalarini yaratgan, ishlab chiqkan birinchi kishi Abu-l-Asvad Dualiydir. “Arab nahvi binosining birinchi g‘ishtini qo‘ygan, arab alifbosidagi undoshlarning nuqtalarini, zer-zabarini (unlilarni ifodalovchi harakatlarni) ishlab chiqqan Abu-l-Asvad bizgacha daragi (xabari) yetib kelgan eng birinchi nahv muallimidir.”²

Arab tilshunosligi rivojlanishining 2-davri Abu-l-Asvad Dualiy shogirdlari davri hisoblanadi. Bu davrda arab grammatisiga oid izlanishlar bilan Abu-l-Asvadning shogirdlari Anbasa ibn Ma’dan al-Fil, Maymun al-Aqrani, Nasr ibn Osim, Ya’yo ibn Ya’mar shug‘ullanganlar. Ular o‘z ustozlarining ilmiy izlanishlarini davom etgirganlar. Arab olimlari ularning yozma asarlarini zikr etmaganliklari bois, biz ularning faoliyati ogzaki talqin qilish bilan cheragalangan (cheklangan) bo‘lsa kerak, deb tahmin qilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibn al-Hajib. *Kafiya fi an-Nahw*. Qadimiy qo‘lyozma va zamonaviy tahrirlar.
2. Versteegh, Kees. *Arabic Grammar and Linguistic Thought*. Brill, 1997.
3. Al-Zubaydi, A.M. *Taj al-‘Arus min Jawahir al-Qamus*. Qom: Dar Ihya al-Turath al-Arabi.
4. Brockelmann, Carl. *History of the Arabic Language and Its Grammar*. Otto Harrassowitz Verlag.
5. Al-Suyuti, Jalal al-Din. *Al-Mazhar fi Ulum al-Lugha wa Anwa’iha*. Qohira: Dar al-Kutub.
6. Abdulaziz al-Dayf. *Tārīkh al-Nahw al-‘Arabī*. Qohira, 1960.
7. Мұхаммад Абдулхай. *Ибн Ҳожисб ва унинг Кофия асаридағы нағый қараашлары*. Ташкент Ислом институти нашри, 2010.

¹ Носирова М. Тилшунослик билимлари тарихи (араб тилшунослиги). – Т.: ТошДШУ, 2011. Б.23

² Носирова М. Тилшунослик билимлари тарихи (араб тилшунослиги). – Т.: ТошДШУ, 2011. Б.24